**Jizzax vohasi tarixi - MOJARM**

**Davlatova Hakima** JDPI, magistr

**Annotatsiya:** Jizzax vohasidagi Mojarm qishlog'ining tarixi, an'anaviy turmush tarzi, urf odat va an'analari va haqida ma'lumotlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Mojarm qishlog'i, an'anaviy turmush tarzi, urf odatlar, zamonaviy turizmi,

**Аннотация:** Информация об истории, традиционном образе жизни, обычаях и традициях села Моджарм в Джизакском оазисе.

**Ключевые слова:** Деревня Мохарм, традиционный образ жизни, обычаи, современный туризм,

**Annotation:** Information about the history, traditional way of life, customs and traditions of Mojarm village in Jizzakh oasis.

**Keywords:** Mojarm village, traditional way of life, customs, modern tourism,

Nurota tog'larining shimoliy qismidan o'tgan Buyuk ipak yo'lining tarmoqlaridan biri bu-Toshkent, Jizzax, Nurota, karmana va undan keying Buxoro shaharlarini birlashtirgan yo'lda va ikki ming yildan ziyod tarixga ega tojik qishloqlari shu yo'lning o'ng tomonida joylashgan.

"Mojarm qishlog'i Nurota to'glari etaklarida yoqut kabi porlaydi. O'zining maftunkor tabiati bilan ajralib turadigan ushbu qisloqda odamlar qadim zamonlardan dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan shug'ullanishadi-deb yozgan edi professor Yu.nurnazarov".

Mojarm daryosi-Forish tog'laridagi eng uzun va keng soydir. Uning havzasi 56 km² va uzunligi 36 km. Mojarm aholisi dehqonchilik qatorida bog'dorchilik bilan shug'ullanadi. Ular yurtimizning ko'plab hududlarig yong'oq yetkazishadi. Mojarm yerlarida bodom, pista va zira o'sadi.

Ba Forish misli Mojarm dehai purfayzu ehson nest,

Zaminash bekanoru nozu ne'matho farovon nest.

Zamone to ba Fashtak mardumi bisyor mezistand,

Vale imro’z kamodam va mardumash pareshon nest

Namo faxr bo chunin xalqi tavono, tojiki Forish.




**“Forish tojiklari” yashaydigan hududning karta-**sxemasi

Mojarm qishlog’i o’zining noyob daraxti-Markaziy Osiyoda juda kam uchraydigan (Sharqiy biota-Iuni perus semiglobosa) savr archasi bilan mashxur. Aytishlaricha bu daraxtni IskandarZulqarnayn marhum qo’mondonlarini dafn etganda mana shunday daraxt ekarkan. Mojarm archasini ham Iskandar Zulqarnayn ekkan emish. Nima bo’lganda ham bu archa qadimiyligidan dalolat beradi. Archa darxtining uzunligi 20 metr, diametri 24 metr.Daraxtni ko’rish uchun chet elliklar ham tashrif buyurishadi.



**Urug'-eng katta qishloqlar**

| № | Qishloqlar | Asosiy avlodlar | Avlodlarning bo'linishi |
|---|---|---|---|
| 1 | Porasht | 1. Qishloqi<br>2. Mahmadzamoni<br>3. Qarovulbegi<br>4. Kalmaki | |
| 2 | O'xum | 1. Albaki<br><br>2. Sultoni<br>3. Tabaqti | Soqigi, Yorboy, Mullone'mati, Davlati, Arbobi, Qozigi<br>Solehboy, Aliboy, Odinaboy, Nekmahmadi<br>Mulloartuqi, Mulloniyozi, Mullomusoi, Turbagi, Bobochagi |
| 3 | Hoyat | 1. Ko'yiki<br>2. Nodirboboi<br>3. Dohayiti | |
| 4 | Mojarm | 1. Qunuqsoy<br>2. Xalachi<br><br>3. Xalachi | Mullofoi, Doabdulati, Dorifi, Qalmoqi, Qozigi<br>Shomahmadi, Do'stmahmadi, Korvoni, Davlatboqigi, Boqigi, Kochaki<br>Ashurmahmadi, Mulloi, Domo'mini |
| 5 | Sintab | 1. Mulloi<br>2. Sultonxuuseyni | Boqigi, Najmiddini, Solihi, Tamuri, Hofizi<br>Ayoni, Bayrami, Yodgori, Kurama, Eshmahmadi |
| 6 | Sob | 1. Yoqubi<br>2. Sultonmurodi<br>3. Hayloi<br>4. Arbobi | |
| 7 | Ej | 1. Qozigi<br>2. Arbobi<br>3. Mulloi | Mormo'ho, Lumlumakon, Dahonyaloqiho<br>Ashuri, Tabarbakitfon, Maliki<br>Boqisoqiyon |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | 4. Shohigi<br>5. Cholmagi | Zumradshohi |

Mojarm qishlog'i urf-odatlari boshqa tojik qishloqlari va forishliklarnikiga yaqin. Mojarm qishlog'ida uy mehmonxonlari tashkil etilgan. Chet ellik sayyohlarga ekoturizm va etnoturizm misolida mahalliy aholining turmush tarzi va milliyligi namoyish etilmoqda.

Mojarm qishlog'ining turizm salohiyati juda yuqori va uni rivolantirish uchun alohida maqsadli rejalar ishlab chiqib, qishloq rivoji uchun amalga oshirish lozim.

**Foydalangan adabiyotlar ro'yhati:**


1. Maxmudi Forishi. Tojikoni Forish.-Guliston.:2000 yil
2. Sharipov A. Forish: Odamlar va udumlar.-Samarqand.: "Turon nashr", 2020 yil
3. Tolipov F.S. Nurota vohasi aholisi oilaviy turmish tarzida jamoa an'analari.-Toshkent.:2006 yil
4. Hakimov Q.M." Forish tojiklari: Hududiy joylashuvi va ayrim etnografik xususiyatlari".-Ilmiy habarnoma.-Toshkent,2020-yil 5-son.